

Xushvaqtova Xusniya Abdivait qizi

*Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani 2-son texnikumi ona tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyotning yosh avlod ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Badiiy asarlar orqali inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, milliy g‘urur, sadoqat va insoniylik kabi fazilatlarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy hamda Erkin Vohidov ijodidan namunalari asosida adabiyotning tarbiyaviy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va yoshlarni badiiy adabiyotga qiziqtirishning dolzarbligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiyot, ma’naviy tarbiya, kitobxonlik, badiiy asar, vatanparvarlik, insoniylik, milliy qadriyat, axloq, ma’naviyat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются роль и значение литературы в духовно-нравственном воспитании молодого поколения. На основе художественных произведений анализируются вопросы формирования у человека таких качеств, как патриотизм, национальная гордость, преданность, гуманизм и нравственность. В статье раскрывается воспитательное значение творчества Аlisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy и Erkin Vohidov. Также особое внимание уделяется развитию культуры чтения и повышению интереса молодежи к художественной литературе.*

Ключевые слова: *литература, духовное воспитание, чтение, художественное произведение, патриотизм, гуманизм, национальные ценности, нравственность, духовность.*

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ma’naviy kamoloti, axloqiy tarbiyasi va dunyoqarashini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Inson qalbiga, uning ichki olamiga, hissiyotlariga, hayot tarziga, fikrlashiga, dunyoqarashiga eng tez ta’sir qiluvchi vositalardan biri bu — adabiyotdir. Badiiy asarlar insonni yaxshilik va yomonlik, adolat, sadoqat kabi fazilatlarni tushuntirib, insonni komillikka yetaklaydi., ezgulik va insonparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Shu sababli adabiyot ma’naviy tarbiyaning muhim omili sifatida jamiyat taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi.

Adabiyot inson ruhiyatini tarbiyalovchi kuchli vosita hisoblanadi. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning butun umri davomida inson tabiati va ma’naviyatiga oid kuzatishlari, axloqiy-ta’limiy xulosalari “Xamsa”, “Nazmul javohir”, “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolis-un nafa’is”, “Arba’in”, “Mahbub ul-qulub” kabi asarlarida o‘z aksini topgan [5 892 b].

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

Alisher Navoiy fikriga ko‘ra, “go‘zal xulq–atvor, yaxshi xulq nishonasi o‘ntadir: yaxshilik qilish, insofli bo‘lish, boshqa odamdan ayb qidirmaslik, nojo‘ya harakat qilayotgan kishini to‘g‘ri yo‘lga boshlash, aybiga iqror bo‘lgan insonning uzrini qabul qilish, boshqalarning mashaqqatini zimmasiga olish, faqat o‘z manfaatini ko‘zlamaslik, ochiq yuzli va shirinso‘z bo‘lish, muhtojlar hojatini chiqarish, muloyim va tavoze‘li bo‘lish”. Navoiy mazkur asarida kishilarni “munosib kishilar” va “nomunosib kishilar” tarzida ikki guruhga ajratadi va “nomunosib kishilar”dan ehtiyot bo‘lishga chaqiradi. [5.892 b]

Alisher Navoiy inson kamolotida ilm va odobning ahamiyatiga katta e‘tibor bergan. U o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida: “Odob — kishining ziynati” deb ta‘kidlaydi. Ushbu fikr inson tarbiyasida axloq va ma‘naviyatning naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Insonlarning ezgu sifatleri, tavoze‘lik(kamtarlik), saxiylik, mehribonlik, singari fazilatlari o‘zgacha uslublar bilan ulug‘langanligi insonni hayratlantirmasdan qolmaydi. Yaramas odat va xulq-atvorlarni juda pastkash odatlar qatori ko‘rib, ayovsiz qoralanganligi esa insonlarni bunday ishlardan nafratlanishga majbur qiladi. Odob-axloq masalasi – kishining komillikka eltuvchi asosiy vosita ekanligini Qur‘oni karim oyatlari va hadisi shariflarga muvofiq misollar bilan dalillar keltiradi [3 15-25 b].

Badiiy adabiyot yoshlarni vatanparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat va insoniylik ruhida tarbiyalaydi. Ayniqsa, o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari yoshlar qalbida milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiradi. Abdulla Qodiriy ning “O‘tkan kunlar” romani orqali vatanga muhabbat, milliy g‘urur, sadoqat va insoniylik ruhida tarbiyalashda tengsiz ma‘naviy xazinadir. Asar qahramonlari, xususan, Otabekning xalqparvarligi, oilaviy qadriyatlar va pok sevgiga sadoqati yoshlarda olijanob fazilatlarni shakllantiradi [2 40-120 b].

Ma‘naviy tarbiyada she‘riyatning ham o‘rni beqiyosdir. Erkin Vohidov o‘z she‘rlarida insoniylik, vatan muhabbati va halollik g‘oyalarini ilgari suradi. Uning quyidagi misralari yoshlarni ezgulikka undaydi:

“Insonni inson etar mehr bilan muhabbat.”

Nafisa Yusupovaning “Erkin Vohidov-El suygan adib” maqolasida keltirilishicha Erkin Vohidov asarlarining mavzu, ma‘no doirasi keng. Uning ijodida Vatan, xalq tarixi, taqdiri tasviri, ona yurti, uning boy, shonli tarixi bilan faxrlanish tuyg‘usi muhim o‘rin tutadi. Bu tuyg‘u, ayniqsa, —O‘zbekim qasidasida o‘zining yorqin ifodasini topganligini qayd etib o‘tgan.[6 96-99 b]. Adabiyot insonning fikrlash doirasini kengaytiradi, hayotiy tajribasini boyitadi va estetik didini shakllantiradi. Kitob mutolaasi orqali yoshlar turli hayotiy voqealar bilan tanishadi, yaxshilik va yomonlikni farqlashni o‘rganadi. Shu jihatdan adabiyot tarbiya maktabi vazifasini bajaradi. Mashhur jadid ma‘rifatparvari Abdulla Avloniy ham tarbiya haqida shunday degan: “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat masalasidir.”[1. 3-5 b]. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Zero, barkamol avlodni tarbiyalashda adabiyotning ta‘siri beqiyosdir.

Xurshid Davron kutubxonasida keltirilishicha “Sharq yulduzi” jurnali tahririyati

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-May, 2026-yil

tomonidan berilgan Adabiyot – tarbiya vositasimi? degan savoliga shunday javob bergan ““Ha!”, adabiyot tarbiya vositasi. Buni tan olmaslikni men adabiy bodilik, deb tushunaman. To‘g‘ri, adabiyot muallim yoki ota-ona kabi bevosita tarbiya bilan shug‘ullanmaydi, ammo u tuyg‘uni, didni, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi tasavvur chegarasini, ko‘ngil va qalbni tarbiyalaydi. Shuning uchun u tarbiya vositasidir. Insoniyatning bugungi ko‘plab fojiasi ma‘lum ma‘noda adabiyotdan uzoqlashishi yoki u bilan qalblarini tarbiyalamay qo‘ygani bilan bog‘liq ekani dunyo allomalari o‘rtasida tahlil qilingan va qilinayapti. San‘at, jumladan, adabiyot tarbiyalamagan qalb vahshiylikka, yovuzlikka, tubanlikka moyil qalbdir. Chunki adabiyot bilan to‘lgan qalbgga yovuzlik kirib olishi qiyin kechadi, ko‘ngil mayli yovuzlik tomonga o‘tishdan oldin u yerda adabiyot bunyod etgan qo‘rg‘onlarni, qal’alarni buzib tashlashiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot bilan to‘yingan qalb, ong – poydevori mustahkam binoga o‘xshaydi. U zalolatga boshlovchi ko‘plab zilzilalarga dosh bera oladi...[7]

Xulosa qilib aytganda, adabiyot inson ma‘naviyatini yuksaltiruvchi, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalovchi muhim vositadir. Badiiy asarlar orqali inson qalbida ezgulik, vatanparvarlik, halollik va insonparvarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Shuning uchun ham yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ularda adabiyotga muhabbat uyg‘otish jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yoxud axloq — Toshkent. 2008. 3-5 b.
2. Abdulla Qodiriy O‘tkan kunlar — Toshkent: Yangi asr avlodi. 2019 40-120 b.
3. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” — Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti. 2016. 15-25 b.
4. Erkin Vohidov Tanlangan asarlar — Toshkent. 2018.
5. M.Ibragimova “Alisher Navoiy asarlarida ma‘naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili” Maktabgacha va maktab ta’limi 2025-yil, dekabr, 12-son 892 b
6. N.Yusupova Erkin Vohidov – “El suygan adib” Erkin Vohidov ijodining turkiy xalqlar madaniyatida tutgan o‘rni Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya Toshkent – 2022 96-99 b.
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nazar-eshonqul-adabiyot-tarbiya-vositasimi.html> 2026 Xurshid Davron kutubxonasi